



UDK: 791.229

Sayyora NAZARBEKOVA,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: sayyoranazarbekova74@gmail.com

O'z JOKU dotsenti, filologiya fanlari doktori P.Allamberganova taqrizi asosida

THE UNIQUENESS CHARACTERISTICS OF DOCUMENTARY FILMS

Annotation

This article explains the purpose, purpose, and specific characteristics of a documentary film. The film is based on truth, its educational and upbringing role, its limitation on artistic gaps, its specific aspects in the journalist's position are interpreted and its scientific-theoretical aspect is substantiated. The function of pedagogical and psychological influence on the individual and society is also described.

Key words: Documentary film, image, analysis, information space, media, reality, national content, cinema art.

УНИКАЛЬНОСТЬ И ОСОБЕННОСТИ ДОКУМЕНТАЛЬНЫХ ФИЛЬМОВ

Аннотация

В данной статье рассматриваются цель, задачи и особенности документального фильма. Фильм основан на правде, его образовательная и воспитательная роль, его ограничение художественными пробелами, его специфические аспекты с позиции журналиста интерпретируются и основываются на его научно-теоретическом аспекте. Также описана функция педагогического и психологического воздействия на личность и общество.

Ключевые слова: Документальный фильм, изображение, анализ, информационное пространство, медиа, реальность, национальный контент, киноискусство.

XUJJATLI FILMLARNING O'ZIGA XOSLIGI VA XUSUSIYATLARI

Annostatsiya

Mazkur maqolada hujjatli filmning maqsadi, vazifasi va o'ziga xos xususiyatlari haqida talqin qilinadi. Film haqiqatga asoslanishi, ta'limiy va tarbiyaviy roli, badiiy bo'shliqlardan chegaralanganligi, jurnalist pozitsiyasida o'ziga xos xususiyatlari talqin qilingan va ilmiy nazariy jihati asoslanadi. Shuningdek, shaxs va jamiyat uchun pedagogik va psixologik ta'sir etish funksiyasi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Hujjatli film, tasvir, taxlil, axborot makoni, media, reallik, milliy kontent, kino san'ati.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida ommaviy axborot vositalari orqali haqiqatni yoritish va uni jamoatga taqdim qilish vazifasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda kino san'atining hujjatli film janri o'zining real voqelikni aks ettirishdagi yondashuvi, uslubiy xilma-xilligi va g'oyaviy yo'nalishlari bilan ajralib turadi. Boisi, hujjatli film jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va tarixiy jarayonlarning keng jamoatchilikga tushunarli tarzda yetkazib, tomoshabinning ongiga ta'sir etadi, fikrni saralaydi, tahlil qiladi va jamiyatda ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar shakllanishida muhim vazifa o'taydi.

Ayniqsa, bugungi mediya olami taraqqiy etgan bir paytda, hujjatli filmning ijtimoiy hayotdagi o'rnini saqlab turish, filmda targ'ibot samaradorligini oshirish va siyosiy mazmunini chuqurlashtirish, bugungi kunning vazifasi hisoblanadi. Chunki, hujjatli filmda milliy o'zligimiz, madaniyatimiz, buyuk tariximizning mashaqqatli taqdirini ekranda namoyish qilmoq, bugungi yosh avlodga milliy ong va milliy g'urur tuyg'ularini singdirmoq davrning o'zi taqozo etmoqda. Boisi, butun dunyo globallashuv asrida OAV orqali yoshlar ongida milliylik, o'zlik tushunchalarini o'rniga g'arb madaniyati va mentaliteti singib borayotgan bir pallada, jamoatchilik qabul qilayotgan har qanday vizual axborotni mediata'lim va mediasavodxonlik talablari doirasida tahlil qilish, saralash davr talabiga aylanmoqda.

Shu bois, media makonida milliy kontentni rivojlantirish, ayniqsa yoshlar talabiga mos uslublarda xavola etish, dolzarb vazifadir. Sababi, shiddat bilan kechayotgan media makoni yoshlarda milliy idenitetning susayishi, madaniy

qadriyat va ma'naviy merosga bepisandlik tuyg'ularini avj oldirishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Demak, axborot makonida milliy kontent yetishmasligi ijtimoiy ong, madaniy idenitet, til va ma'naviyat masalalari jiddiy xavf ostida qolayotgan bir paytda OAV, kino, televideniye va raqamli platformalarda tarix, milliy qadriyatlar, urf-odat va milliy o'zlikni tarannum etuvchi kontent tayyorlash ustuvor vazifa bo'lmog'i darkor. Jumladan, kino san'atining hujjatli film janri, bu xavflarning oldini oluvchi himoya vositasi sifatida xizmat qiladi.

Sababi, hujjatli film jamiyatni bir maqsad yo'lida birlashtiruvchi, tabiiyligi bilan ishonch uyg'otuvchi va ma'naviy ta'sir kuchiga egaligi bilan farqlanadi. Shu bois mazkur tadqiqot doirasida, avvalo hujjatli film nima? Filmning o'ziga xosligi va xususiyatlari nimada aks etadi? kabi savollarga yechim topishda bir nechta olimlarning nazariy qarashlarini ilmiy jihatini tadqiq qilamiz.

Jumladan hujjatli filmning nazariy jihatdan asoslanishiga Shotlandiyalik rejissor, "hujjatli kino" atamasining muallifi John Grierson "Hujjatli film-bu hayotiy voqelikni ijodiy tarzda talqin etishdir." – deya ta'riflaydi.

Ushbu jumlada tadqiqotchi rejissor hujjatli filmni faqatgina tabiiylikni badiiylikka uyg'unlashtirib, tomoshabinga hayotning turli qirralarini anglashga, his qilishga yordam beruvchi vizual hujjat emas, balki ijtimoiy haqiqatni ilmiy idrok etish shakli sifatida talqin qilinadi. YA'ni, filmning asosiy manbai dalil, fakt, voqea, hodisa va insonlar bilan bog'liqdir. Ayni mana shu jihat badiiy filmdan farqlaydi.

Ikkinchi jihati, hujjatli filmda muallif pozitsiyasi muhim ahamiyatga egadir. Chunki, ijodiy jamoaning vazifasi faqat voqelikni boricha tasvirga olish bilan cheklanmaydi. Balki, film mavzusini tanlaydi, tadqiq qilinadi, tartiblaydi, montaj orqali ma'no yuklaydi. YA'ni, filmni muayyan g'oya asosida unga estetik yo'nalish berib, tomoshabinga havola etadi.

Shu jarayonlardan muvofaqqiyatli chiqishida ijodiy jamoa o'zaro hamkorlikda ish olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, yuqori saviyaga ega bo'lgan hujjatli filmning yutug'ida rejissorning fantaziyasi, jurnalistning g'oyasi, tasvirchilarning zehn-zakovati va badiiy qarashlari orqali film haqiqatini tasvirlaydi, hissiyotlari va estetik yondashuvlari orqali boyitiladi. Shuningdek, insonning ijodkorligi bilan jamiyat muammolari va atrofimizdagi olamni qamrab oluvchi va tadqiq etuvchi kuchli tasvirlar bilan boyitiladi. U holda ijtimoiy maishiy muammolar, tasvirlarda ko'zgu kabi namoyon bo'ladi.

Jamiyatdagi muammolarni ko'zgu kabi aks ettirgan hujjatli film haqida Amerikalik aktyor Richard Gir ham quyidagicha izohlaydi. "Men umuman kino biror narsaga o'rgata oladi, deb hisoblamayman. Ko'p xollarda u huddi Ko'zgu kabi ishlaydi, biz bu ko'zgdagi o'zimizni va qilmishlarimizni ko'rishimiz hamda xulosa chiqarishimiz mumkin. Har kimning o'z Ko'zgusi bor"[10] – deya takidlaydi.

Demak, aktyorning fikricha, hujjatli film hayotni aks ettiruvchi oyna vazifasi bo'lib, unda shaxsiy hikoyalardan tortib, global hodisalarni o'ylantiruvchi tadqiqargacha, tomoshabinlarni xabardor qilish, tarbiyalash va ilhomlantirish xususiyatlari nazarda tutilgan. Ayniqsa, tarbiyaviy jihati kuchli bo'lgan global mavzudagi hujjatli filmning ta'sirida tomoshabin ekologiya inqirozidagi yo'l qo'ygan xatosini, suv tanqisligi va qurg'oqchilikdagi e'tiborsizligini, havoni ifloslanishidagi noo'rin xatti-xarakatini anglab yetadi. Avval, ahamiyat bermay e'tiborsiz bo'lgan jarayon uchun xatosini anglashi va xulosa chiqarishi mumkin. Filmning tarbiyaviy xususiyati ham shundaki, tomoshabin ma'lumot orqali ta'lim oladi, axloqiy-tarbiya bilan birgalikda vatanparvarlik tuyg'usi uyg'onadi. Natijada, tomoshabin ongli ravishda xulosa chiqarishiga yechim beradi. Ijtimoiy va gloval muammolarga loqaydlik kamayadi.

Hujjatli film nazariyasi asoschilaridan biri Bill Nichols filmning o'ziga xosligi bo'yicha quyidagicha ta'riflaydi.

Uning fikriga ko'ra "Hujjatli film-bu real hayotni ifodalash orqali bizning dunyo haqidagi tushunchalarimizga ta'sir qilishni maqsad qilgan film shaklidir. Hujjatli film-bu bizga o'zlarini namoyon qiladigan haqiqiy odamlar ishtirokidagi voqealar va xolatlarni haqida hikoya qiladi. Bu hikoyalarni orqali ularning hayoti, xolati va boshidan kechirgan voqealar haqida ishonarli ma'lumot beradi. Hujjatli film biz allaqachon yashab turgan dunyo haqida hikoya qiladi va buni rejissorning nuqtai nazari chuqur shakllantirgan uslubda amalga oshiriladi." [3] – deya takidlaydi.

Demak, Biil Nicholis tomonidan ilgari surilgan g'oyaga tayangan holda aniqlikni ifodalash orqali dunyoni anglashimiz, maqsad qilingan. Chunki, hujjatli filmlar orqali tarixiy shaxslar va zamonamiz qahramonlarining hayoti va faoliyati, ular bosib o'tgan yo'lni barchaga na'muna sifatida namoyon etiladi. Millat oydinlari va zamon qahramonlarining ibratli yo'li, ularga tegishli dalil va ashyolar filmda muhrlanib, bugunning yoshlari uchun o'mak qilib ko'rsatiladi. Yoshlarda milliy g'urur va o'zlikni anglash hissi kuchaytiriladi. Umumiy olganda hujjatli film muayyan davrga oid davlat statistic ma'lumotlarini aniq voqelikni badiiylik bilan uyg'unlashtirib tarixiy xotira ba'zasidan joy oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Demak, hujjatli filmning o'ziga xosligi - bu hayotiy xaqiqatdir, ijodkor uni yaratmaydi,

balki boricha ko'rsatib beradi. Filmda hayotning tabiiyligi, rostgo'yligi mavjud. Shu bois, tomoshabin hujjatli filmga ko'proq ishonadi. Chunki, film sahnalashtirilgan kino emas, real voqelik, insoniyat va butun olam taqdirini ko'radi. Filmni suratga olishda ijodkorlar fikrini bildiradi, g'oyaviy qarashlarini ilgari surar ammo, bu fikr real hayot tasvirlari asosida shakllanadi. Shu sababli, vaqt o'tishi bilan hujjatli filmning qadri ortib boradi va tarixiy manbaga aylanadi. Vaqtlar, davrlar almashinuvi hujjatli filmning qadrini, qiymatini yuqori baholaydi.

Vaqt va zamon qadrini yanada yuksaltiradigan hujjatli filmning ilmiy jihatini tahlil qilishda, uning o'ziga xosligi va xususiyatlari quyidagilar orqali ifodalanadi:

haqiqatga asoslanishi - hujjatli filmlar real voqea, shaxslar yoki holatlar asosida ishlanadi. Ular badiiy filmlardan farqli o'laroq, to'qima yoki fantastik elementlardan qochadi;

ma'lumot berish va ta'limiy roli - bu filmlar tomoshabinlarga ma'lum bir mavzu bo'yicha aniq va batafsil ma'lumot yetkazishni maqsad qiladi. Masalan, tarixiy voqealar, ilmiy kashfiyotlar yoki ijtimoiy muammolarni haqida;

haqiqiy tasvir va intervylardan foydalanish - hujjatli filmlar ko'pincha real tasvirlar, tarixiy hujjatlar, arxiv materiallari va intervylardan foydalanadi, bu esa ularni yanada ishonchli qiladi;

jurnalistik yondashuv - hujjatli filmlar odatda jurnalistik yondashuvni qo'llaydi: ular tadqiqot olib borish, dalillarni yig'ish va ularni tizimli ravishda taqdim etishga intiladi.

muayyan ijtimoiy yoki madaniy mavzularga e'tibor - ko'plab hujjatli filmlar ma'lum bir ijtimoiy, ekologik yoki siyosiy masalalarni yoritib, tomoshabinlarni ongli qilish yoki muammoga e'tibor qaratishni maqsad qiladi,

badiiy bo'shliqlardan chegaralanganligi - hujjatli filmlarda badiiy filmlarga xos dramatik voqealar yoki ijodiy bo'shliqlar kamroq bo'ladi. Ular iloji boricha haqiqatni aniq aks ettirishga harakat qiladi;

statistic tahlil - jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini solishtirish, taqqoslash va tahlil qilish;

rejissorning nuqtai nazari - garchi hujjatli filmlar faktlarga asoslansa-da, ular rejissorning o'ziga xos qarashlari va ma'lum bir mavzuni qanday taqdim etishni tanlashiga ham bog'liq. Bu jihatlar esa filmning o'ziga xosligi va xususiyatlarini namoyon qiladi.

Tahlil va natijalar. Demak, tahlillar natijasiga ko'ra, hujjatli film to'qima yoki fantastik elementlardan yiroqligi ayon bo'ldi. Filmda dunyo murakkabliklarini o'rganish va tushunish uchun yagona imkoniyatni yaratadi. Shu bois, hujjatli filmning asosi, negizi, belgisi – haqqoniylik, hayotiy haqiqatning aks ettirishni, zamonamiz "cho'qqisidan" idrok etib ko'raylik.

Diqqatga sazovor tomoni shuki, haqiqat va uning ham go'zal, ham achchiq ko'rinishlari borasidagi fikrlar, ming yilliklar osha bizga yetib kelganu, o'z qimmatini yo'qotmagan. Aksincha, ko'p xollarda bugungi nazariyani boyitmoqda.

Jumladan, buyuk qomusiy alloma Abu Rayhon Beruniy asarlarida axborot haqida shunday fikr bildirilgan. "O'tmishdan qolgan axborot mantiqiy dalillar bajara olmaydigan ishni bajarishini aytadi. Bu jarayonni voqelikni his-tuyg'u vositasi ila qabul qilish jarayoniga o'xshatib bo'lmasligi qalamga oladi. So'ngra bunday xulosaga kelish, fikrni davom ettirish uchun, avvalo shaxs yomon xususiyatlardan o'zini xoli etishi, haqiqatni ko'rsata olmaydigan qilib qo'yadigan odatlarni tashlashi kerak." [5] - deya ta'kidlagan alloma. Demak, kinopublistika tamoyillari va qonuniyatlariga amal qilinishi ijodkorning faqat ijodiy imkoniyatlari, malakasigagina emas, avvalo, uning pokligiga bog'liqligi haqida fikr bildirgan.

Beruniy haqiqatga erishish odob-axloq talablariga rioya qilish bilan uzviy bog'liqligi haqida fikr yuritishi,

yodgorliklardan haqqoniy axborot olishda shaxsning insoniy fazilatları muhim omil bo'lishini e'tibor bilan yozadi.

Bu borada nemis faylasufi Fridrix Shelling "san'atning asosiy vazifasi haqiqatni anglash, uning tasvirini namoyon etish, deb biladiki bu tezis san'atlar falsafasini, oliy maqsadni o'rganish, yoritish, ilmiy amaliy xulosalarga kelish jarayonida, puxta konsepsiya tuzishda tayanch nuqta sifatida qabul qilinadi. Zero, san'atda, avvalo, haqiqat mujassam etilishi kerak. Haqiqat his tuyg'udan ustun turadi." [9] deya izohlagan. Demak, haqiqat hujjatli film qalqoni vazifasini o'taydi. Hujjatli filmning badiiy filmdan farqi ham faktik materiallarga asoslanadi. Hujjatli film badiiy to'qima, bo'rtirma tasvirlar, his tuyg'ulardan chetlab o'tadi. Buni buyuk shaxslarimiz ilmiy nazariyasi asos bo'ladi.

Hujjatli filmning yana bir o'ziga xosligi va muhim poydevor vazifasini bajaruvchi jihati, film ijodkorlarning mavzu doirasida yondashuvidir. Film yaratishda ijodiy jamoa hamjihatlikda ish olib borishi lozim. Jarayonda, film jamoasi senariy yozishdan tortib, mavzuni o'rganish va tadqiqot olib borish, dalillarni yig'ish va ularni tizimli ravishda taqdim etishga, tasvirga olish jarayonigacha uzviy xolda ishtirok etadi.

Taniqli kinohujjatchi "G.Frank film yaratishni – okeanda suzishga, senariyni esa – Ptolemey xaritasiga o'xshatardi, ya'ni guruh "Yangi Yer"lar qidirib topish uchun kemada yo'lga tushgan, o'zlarini "Yangi Yer" ni ko'rmagan, faqat tasavvur qiladilar, xolos." [6] Demak, film yaratish dengizda sayr qilib, kimsasiz ololni topishdek qiyoslanadi. Ya'ni filmni yaratishda avvalo, senariy mayoq vazifasini o'taydi.

Hujjatli filmda senariy butun ijodiy jarayonning asosiy tayanch nuqtasidir. U filmning mazmun mohiyati, tuzilishi va badiiy yo'nalishini belgilab beradigan konseptual asos bo'lib xizmat qiladi. Senariy orqali filmda ko'tarilayotgan mavzuning asosiy g'oyasi aniqlanadi. Faktlar va vizual materiallar dramaturgik ketma - ketlikda joylashtiriladi.

Xususan, senariy faqat tayyor matn emas, butun filmning g'oyaviy yukini ko'taruvchi, uni tomoshabinga tushunarli ta'sirchan tarzda yetkazishda xizmat qiluvchi asosiy vositadir.

Amerikalik rejissyor Alan Rozentalning so'zleri ham xuddi shuni takrorlayotganday: "Men film yaratishni me'moriy loyiha ustida ishlashga o'xshataman. Binonni tiklashda asos loyihasisiz, chizmalarsiz ham ishlash mumkindir, huddi shuningdek, har qanday filmni ham senariyisiz yarataversa bo'ladi. Lekin har ikkala taqdirda ham ijodiy g'oyani shakllantirish va rasmiylashtirish uchun millionta bahona topiladi. Yaxshi senariy film yaratishni ming marotaba osonlashtirib beradi." [7] Ya'ni yaxshi senariy filmning loyihasi bo'lsa, uni tiklash va bezak berish, estetik boyitish orqali yanada mukammallashtirish mumkin.

Hujjatli filmlarning muvofaqqiyatli chiqishida, rejissorning nuqtayi nazarini va mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Garchi hujjatli filmlar faktlarga asoslansa-da, ular rejissorning o'ziga xos qarashlari va ma'lum bir mavzuni yoritishdagi yondashuviga ham bog'liq. Filmdagi reallikni innovatsion yondashuv orqali chiqarib berishda rejissorning tasavvur kuchi va estetikasi kadrda ko'chadi. Masalan, hujjatli filmlar ustida kinomatagrafik madaniyati yuksak san'atkorlar Bahodir Muzaffarov va operator Hotam Fayziyev muallifligi ostida olingan "Tushlar" hujjatli filmida o'zbek xalqining yuksak

madaniyati, o'tmishidan qolgan boy merosi, qo'li gul ustalarining aqli, irodasi, ijod etish jarayonidagi harakatini kamera suratga olgan. Tasvirda qahramonlarning ijodiy g'ayratga to'lib tushgan damlari, hunarmandning mehr qo'rini berib, ko'z nurini sarflayotgan soatlarni ko'ramiz. Hunarmandlar o'zaro munosabatda bo'lishi, bir-birini darhol anglashi, bir-yagona maqsad yo'lida izlanib, ter to'kish jarayonlari tomoshabinlarga yetkaziladi. Mazkur hunarmandchilikdagi tabiiy jarayonning o'ziga xoslik jihatlari tasvirda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Hujjatli filmda rejissorning tasavvur doirasining ne chog'li yuqori darajadiligini tarixiy hujjatli filmlar misolida ko'ramiz. Bunga misol tariqasida "Avesto" filmning umumiy jihatlari e'tibor qaratsak. Filmida Avesto davrining o'ziga xos manzarasini yaratish, shu davrdagi hukmron g'oyaning ilgari surilishi, filmida olingan kadrlarda sezilib turadi. Tarixiy filmning o'ziga xos tomonlari davrga aloqador muayyan tasvirni, ovoz vositalarini topib bo'lmasligi bois ijodkor tarixiy manbalarni o'rganib, badiiy tadqiq qilib, o'ziga xos kinomatagrafik shaklda murakkab voqealarning go'zal ifodasini yaratish yo'lida borganlar. Filmida inson oyog'i tegmagan o'rmon, yer qariga singib ketgan zilol suvlar, tabiatning mo'jizakor tasvirlari tasvirlangan. Bu ijodkorning bilimi, tasavvurlari, kreativ yondashuvi va o'ziga xos badiiy tadqiqoti namoyon bo'lgan.

Hujjatli film yaratishda yana muhim uslubning o'ziga xosligi, yashirin kamera va tovushni sinxron yozib olish, shuningdek, "kinohaqiqat" deb ataluvchi usullardan muvofaqqiyatli foydalanib kelganligi. Mazkur uslubdan 1970-1980-yillarda kengroq foydalanilgan. Tabiatni kuzatish, o'simliklarning bo'y cho'zib rivojlanishi, hayvonot olamining yashash tarzi, suvlarning shildirashuvi, yomg'irning sharros quyishidek jarayonlarni kuzatuv janri orqali tasvirga olingan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hujjatli filmlarning o'ziga xosligi bilan bizning dunyo haqidagi tushunchalarimizni shakllantirishda va ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirishda kuchli vosita ekanligini isbotladi. Ushbu maqolada, hujjatli filmlarning badiiy va informativ sifatleri, uning o'ziga xos mezonlari, tarixiy haqiqatni yoritilishidagi roli va ijtimoiy ongga ijobiy ta'siri keng tahlil qilindi.

Olib borilgan ilmiy taxlillar shuni ko'rsatdiki, hujjatli filmning asosiy o'ziga xosligi - real voqelikni san'at orqali talqin qilish, voqea va shaxsni badiiy vositalar yordamida ochib berish, tomoshabinda ishonch va tafakkur uyg'otish qobiliyatidir. Uzoq yillar davomida hujjatli film aniqlikka asoslangan bo'lsada, zamonaviy hujjatli film badiiylik va estetik ifoda orqali yanada boyitmoqda.

Hujjatli filmning o'ziga xosligi uning fakt va haqiqat asosida qurilgan bo'lishida, ijtimoiy ahamiyat kasb etilishida va tomoshabinni ongli tafakkur qilishiga undovchi kuchli vosita sifatida namoyon bo'lishidadir.

Tomoshabinlarni tarbiyalaydimi, ilhomlantirishiga harakat qiladimi, yoki badiiy ifoda chegaralarini kengaytiradimi, bu filmlar jamiyatda o'chmas iz qoldirdi va bizning rivojlanayotgan media landshaftimizda katta ahamiyat kasb etishda davom etmoqda.

Bu janrni rivojlantirish uchun texnologik innovatsion-yalarni jalb qilish, mavzu tanlovida teranlik va milliy ruhni saqlash muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Prezident: "Odamlarning yangilik va tahlillarga bo'lgan ehtiyojini to'ldirmasak, buni boshqalar qiladi". – URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2024/01/13/media/> (murojaat sanasi 10.02.2024).
2. Teatr..Kino...Televideniye... (Dono fikrlar) T. 2022.
3. Bill Nichols "Introduction to Documentary", "Hujjatli filmga kirish" (2-nashr) Indiana Universiteti nashriyoti, 2010
4. B.Ahmedov "O'zbek televideniyasining rivojlanish tarixi." Toshkent 2007 81-bet
5. Abu Rayxon Beruniy. Izbr.pr 1 jild. T. 1957
6. Frank G. "Karta Ptolomeya" –M.. "Iskusstvo". 1975.
7. Rozental A. "Sozdaniye kino..." M. "Era". Str 19-20
8. <https://voice123.com/blog/filmmaking/types-of-documentaries/>
9. Shelling F.B. Filosofiya iskustva M:Misl 1966. 243-bet
10. Richard Gir Teatr..Kino...Televideniye... (Dono fikrlar) T. 2022. 166-b